



## OLY TA’LIM MUASSASALARIDA TYUTORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

**Muallif:** Karimova Nozik Juraevna <sup>1</sup>

**Affilyatsiya:** Alfraganus universiteti Pedagogika fakulteti “Pedagogika va psixologiya” magistratura mutaxassisichligi 2-kurs magistranti <sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14437257>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Respublika oliy ta’lim tashkilotlarida tyutorlik faoliyatining mazmuni, shakli tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari va mexanizmalari xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so’zlar:** pedagogika, psixologiya, tyutor, tyutorlik, bilim, ko’nikma, faoliyat, pedagogik, imkoniyatlar.

### KIRISH

Respublika oliy ta’lim tizimini takomillashtirishda, uning iqtisodiyot tarmoq sohalari uchun malakali kadrlar tayyorlashning istiqbolli rejalarini amalga oshirishning barqaror taraqqiyotini ta’minlaydigan asosiy omil sifatida e’tirof etiladi. Qolaversa, dunyoning aksariyat mamlakatlari tomonidan qabul qilingan XXI asrning 30-yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim kontsepsiyasida “Bilimning mustahkam poydevoriga ega bo’lish ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamkorlik qobiliyatlari va qiziqishlarini kuchaytirish” dolzarb vazifa sifatida qayd etilgan. Bu esa ta’lim tizimida jumladan, pedagogika va psixologiya ta’limi va tarbiyasini olib borishda ilg’or ta’lim texnologiyalari va uslublaridan foydalanishni taqazo etadi.

### MUAMMONING MEDOLOGIK ASOSI

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida” 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog’liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” 2020-yil 31-dekabrda 824-son hamda “Respublika oliy ta’lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida” 2021-yil 9-sentabrda 563-son qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirish tartibi va yo’nalishlarini belgilab beradi.

O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasida ustuvor vazifalar belgilab berilgan<sup>1</sup>. Oxirgi uch-to’rt yilda O’zbekiston Respublikasining ta’lim tizimida juda katta ijodiy o’zgarishlar yuz berdi. Bu o’zgarishlar shaxsan Davlat rahbarining say’-haraktari asosida oid borildi. Natijada bir qancha me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, pirovard natijada ta’lim tizimi bir qator isloh qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF- 4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasi"da milliy kadrlarning raqobatbardoshligi va umumjahon amaliyotiga asoslangan oliy ta'lim milliy tizimining sifati oshish belgilab qo'yilgan.

Oliy ta'lim tizimida tyutorlik faoliyatini pedagogik imkoniyatlari texnologiyalarini joriy etish tadqiqotlarida boshqarish uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida faoliyat yuritayotgan muassasalar faoliyatini samarali boshqarish yo'llari tashkiliy texnologik asoslarini tahliliy o'rganishga e'tibor qaratgan. Oliy ta'limda o'quv jarayoni kredit-modul tizimiga o'tkazish, qator oliy ta'lim muassasalarini o'zini o'zi moliyaviy ta'minlashga o'tkazish, ta'lim sohasini to'liq raqamlashtirish, davlat-hususiylar sheriklik mexanizmlarini ta'lim sohasiga ham keng tatbiq etish masalalari shu kunning dolzarb masalalari ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Mamlakat ta'lim tizimining reproduktiv holatdan uzluksiz rivojlanuvchi, ochiq holatga o'tishi hamda ta'lim oluvchilarni o'z ta'limiy va ijtimoiy-madaniy manfaatlarini yuzaga chiqarishga yo'naltirish jarayonlari ta'lim tizimi bosh sub'ektlari – ta'lim oluvchilar va o'qituvchilarning o'z faoliyatiga munosabatini o'zgartirish zarurligini taqozo etadi. Bu holat kredit ta'lim tizimi bo'yicha ta'lim jarayonini tashkil qilishga to'la mos keladi.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasining darajalari, bosqichlari, akademik darajalarini aniq baholashga imkon beradi va ularni shaffof, tashhislanadigan va tan olinadigan holatga keltiradi. Bu esa jahon ta'lim muhitiga qo'shilishning bosh shartlaridan biri hisoblanadi.

Akademik kreditning joriy qilinishi o'quv rejalarini pedagogik imkoniyatlari, integrallashgan o'quv kurslari, qo'shma ta'lim dasturlarini yaratish orqali oliy ta'lim tizimini yangicha tashkil qilish uchun asos bo'ladi va jahon bozorida bizning ta'limimiz va mutaxassislarimizning raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Ta'kidlab o'tilganidek, Bolonya deklaratsiyasini kiritishni ikki bosqichli oliy ta'limni joriy qilishni ko'zda tutadi, bunda birinchi bosqich

– talabalarning ishlab chiqarish ehtiyojlariga mos ijrochilik malakalarini o'zlashtirishiga, ikkinchisi esa – ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan va uchinchi ularning faoliyatini nazorat qilish va boshqarishda tyutorlik faoliyatidan foydalanish malakali kadrlar tayyorlash ta'lim tizimi uchun o'ta muhimdir.

Shular bilan bir qatorda oliy ta'limga qarashlarda "teaching" formatidan "learning" formatiga tomon o'zgarishlar sodir bo'lmoqda, ya'ni talabani "o'qitish" emas, balki talaba "o'qishi" kerak degan g'oya ustuvor bo'lmoqda. Bu g'oyaga ko'ra inson butun umri davomida o'qiydi, talaba fanga oid bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil tarzda o'zlashtiradi, o'qituvchining xususan tyuterning vazifasi esa – talabani shaxsiy qiziqishlaridan kelib chiqqan holda zarur yordamlarni ko'rsatishdir.

Milliy ta'lim dasturlarining xalqaro tan olinishini, talabalarning va professor-o'qituvchilarning mobilligini ta'minlash, shuningdek, ta'lim sifatini oshirish hamda oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'limning barcha bosqichlarda uzviylikni ta'minlash maqsadida mutaxassislarni tayyorlashning uch pog'onali "bakalavr – magistr – doktor" tuzilmasi yagona kredit ta'lim tizimi bo'yicha ikkita bosqichda amalga oshiriladi: oliy ta'lim (bakalavr-magistr) va oliy ta'limdan keyingi ta'lim (doktor).

Shunday qilib, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim bosqichlarini modernizatsiya qilish ta'lim jarayonining tuzilmasi, mazmuni va tashkil qilinishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunda, birinchidan, mutaxassislar tayyorlashning uch pog'onali "bakalavr – magistr – doktor" tuzilmasiga o'tiladi, ikkinchidan, o'rta ta'limdan keyin ikki bosqichli (oliy – oliy ta'limdan keyingi) tuzilma saqlanib qoladi, uchinchidan, kredit ta'lim tizimi qo'llaniladi. Bu ikkila holat ham ta'lim mazmunida sezilarli darajada aks etadi. Ushbu aks ettirishning mazkur jarayonda oliy ta'limning asosiy vazifalari sifatida quyidagilardan iborat bo'ladi:

keng fundamental bilimlarga ega, tashabbuskor, mehnat va texnologiyalar bozorining o'zgaruvchan talablariga moslashuvchan yangi shakldagi mutaxassislar tayyorlanadi;

oliy ta'lim tizimini demokratlashtirish orqali sifatli ta'lim xizmatlarini taqdim etishga bo'lgan qiziqishini oshirish;

alohida oliy o'quv yurtlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tishga tayyorlash, elita oliy o'quv yurtlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish;

oliy o'quv yurtlarini boshqarishning yangi tamoyillari va amaliyotini shakllantirish, strategik rejalashtirish tizimini joriy etish va oliy o'quv yurtlarining avtonomligini oshirish;

talabalarning sifatli ta'lim olishga bo'lgan huquqlarini mustahkamlash, sifatli ta'lim xizmatlari taqdim etish uchun rahbarlarning mas'uliyatini belgilovchi mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish.

## **XULOSA**

Ushbu topshiriqlarni oliy ta'lim muassasalarining boshqarish tizimini yanada pedagogik imkoniyatlari sharoitlarida jamoatchilik nazorati, keng akademik imtiyozlar berish, hamda o'quv jarayonini talabalarning qiziqishlarini inobatga olgan tarzda tashkil etish texnologiyasini pedagogik imkoniyatlari va o'qituvchilar orasida raqobat muhitini yaratish, talabalarni nazorat qilish va ularni malakali kadrlar bo'lib yetishishlari uchun tyutorlik faoliyatini keng yo'lga qo'yish va pedagogik imkoniyatlari orqali amalga oshirish mumkin.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

Tarbiya fanining metodikasi. Toshkent: "Pedagogika" nashriyoti. G'afurov. R. (2016-yil).

Ta'limda zamonaviy yondashuvlar va metodikalar. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti. Hoshimova N. (2018-yil).

Pedagogik tadqiqotlar va ularning natijalari. Toshkent: "O'zbekiston ta'limi" nashriyoti. Koziyev X. (2022-yil).

O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi yangi qonun va normativ-huquqiy hujjatlar. Toshkent Sh., 2020-yil 23-sentyabr, O'RQ-637-son.